



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN‘IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
BUYRUG‘I

2025-yil 24-aprel

37-son

Toshkent sh.

Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etish to‘g‘risida

Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida (keyingi o‘rinlarda – Institut) ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish maqsadida **buyuraman:**

1. Institutda Ish beruvchi bilan Institut xodimlari o‘rtasidagi mehnat munosabatlarini va mehnat sharoitlari bilan bog‘liq masalalarni tartibga soluvchi, xodimlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini va qonun hujjatlariga asosan mehnat huquqlari va kafolatlarini ta‘minlashga qaratilgan ishlarni tashkil etuvchi **Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha komissiya** (keyingi o‘rinlarda – Komissiya) faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilsin.

2. Komissiyaning Ish beruvchi vakillaridan iborat a‘zolari tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin (Komissiyaning Kasaba uyushmasi qo‘mitasi vakillaridan iborat a‘zolari tarkibi Kasaba uyushmasi qo‘mitasining qarori bilan tasdiqlanadi).

3. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimnamda qoldiraman.

Direktor



A.Kadirov

**Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot
instituti ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiyasining
Ish beruvchi vakillaridan iborat
TARKIBI**

T/r	F.I.O	Lavozim	Izoh
1.	A.Nuriddinov	Direktorning umumiy masalalar bo'yicha o'rinbosari	Komissiya a'zosi
2.	I. Xolmatova	Ilmiy kotib	Komissiya a'zosi
3.	F.Gulamova	Xodimlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i	Komissiya a'zosi

*Izoh: Komissiya a'zosi boshqa lavozimga o'tganda uning o'rniga tayinlangan shaxs
bevosita komissiya a'zosi hisoblanadi.*